


## 2022- yilning yanvar-martida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 30 708,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 10,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 18,9 % ga yetdi.




## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>25 720,8</b>	<b>30 708,6</b>	<b>110,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 843,9	27 073,1	109,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2 876,9	3 635,5	116,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>22 843,9</b>	<b>27 073,1</b>	<b>109,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>9 567,5</b>	<b>11 296,6</b>	<b>111,3</b>
sanoat	7 496,1	8 451,4	110,1
qurilish	2 071,4	2 845,2	115,7
<b>xizmatlar</b>	<b>13 276,4</b>	<b>15 776,5</b>	<b>108,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 449,7	4 187,2	109,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 707,6	3 533,3	126,9
boshqa xizmat tarmoqlari	7 119,1	8 056,0	101,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 695,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 % ga yuqoridir.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 88,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog‘ining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 31,2 % ni, qurilish 10,5 % ni va xizmatlar sohasi 58,3 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,8	88,2
mahsulotlarga sof soliqlar	11,2	11,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>41,9</b>	<b>41,7</b>
sanoat	32,8	31,2
qurilish	9,1	10,5
<b>xizmatlar</b>	<b>58,1</b>	<b>58,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,1	15,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	11,9	13,1
boshqa xizmat tarmoqlari	31,1	29,7

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 110,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,2 %), qurilishda – 115,7 % (10,5 %), xizmatlar sohasida – 108,5 % ni (58,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,1 % (15,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 126,9 % (13,1%), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,3 % dan (29,7 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,9 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 3,7 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 4,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.)ga ko'paydi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda 118,8 % va xizmatlarda – 109,5 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 51,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

